



USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECT OF PHRASEOLOGY

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Faculty of
Turkic Languages, 2nd level student of Uzbek language education in
foreign language groups

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118333>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2024

Accepted: 06th May 2024

Online: 07th May 2024

KEYWORDS

Phrase, phrase, method,
"Attitude" method, strategy,
phrase, phraseology.

ABSTRACT

The use of interactive methods in teaching the topic of expressions helps students to know the meaning of expressions and to develop the ability to use them correctly. It also ensures that students are active in class.

FRAZELOGIYA MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli
guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118333>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2024

Accepted: 06th May 2024

Online: 07th May 2024

KEYWORDS

Fraza, ibora, metod,
"Munosabat" metodi,
strategiya, frazema,
frazologiya.

ABSTRACT

Iboralar mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning iboralar ma'nosini bilishi va ularni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini hosil qiladi. O'quvchilarning darsda faol bo'lishini ham ta'minlaydi.

Tilning lug'at boyligida fraza(ibora)lar ham alohida o'rin tutadi. Ularning nutqning jozibadorligini oshiradi. Iboralar ma'no jihatidan bir so'zga teng bo'ladi. Iboralar ham yillar o'tishi bilan sayqallanib boradi. Frazalarning ta'sir kuchi oddiy so'zga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Shunday frazalar bor uni so'zma - so'z tarjima qilish mumkin, shunday frazalar borki, ularni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin emas. Fraza so'z birikmasi shaklida ham gap shaklida ham bo'lishi mumkin. Iboralar xalq hayotining ifodasi desak ham bo'ladi. Chunki, iboralar ham xalq tomonidan chiqarilgan xulosalar asosida paydo bo'lgan. Iboralarni adabiyotda ko'p qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Ular obrazlilik bilan asar jozibasini oshiradi. ¹Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq

¹Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006



leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi, shunga ko'ra tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng bo'lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilan-gina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi.

Fraza ya'ni iboralar adabiyotlarda "frazema", "frazeologik birlik", "frazeologizm" kabi terminlar bilan qo'llaniladi. ²Frazeologiya (gr. Phrasis-ifoda logos-ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tining frazeologik majmui. O'zbek tilshunosligida Baxtiyor Mengliyev, Mahbuba Xudoyberdiyeva, Oynisa Boymatova tomonidan "O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati" tuzilgan bo'lib, bu kitob maktab o'quvchilari uchun. ³Til leksikasida frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Frazeologizmlar leksikalizatsiya hodisasining yorqin namunasi. So'z birikmalari ma'nolari ixtisoslashib, bir so'z ma'nosiga teng ma'no ifodalashga o'tadi. Iboralar shaklan so'z birikmasiga o'xshaydi, lekin til leksikasiga mansub bo'ladi. Gap shaklida keladigan iboralarga misollar: Shunday hiyla berardimki, -(zaharni), tabiblar *barmog'ini tishlab* qolgan bo'lardi. Bu gapdagi barmog'ini tishlab iborasi "hech narsa qilolmay qolmoq" degan ma'noni anglatadi. Hoy Yo'lchi, *esingni yedingmi*, Uyat! Bu gapdag esini yemoq iborasi qo'llanilgan bo'lib, "miyasi ishlaymay qoldi, firlamay qoldi" degan ma'noni anglatadi. Bahor kelishi bilan kunora havoning avzoyi buziladi. Bu gapda havo yomonlashganiga ishora qilinsa, Qosim aka qo'ylarning yo'qolganini ko'rib *avzoyi buzildi*, Bu gapda achchiqlandi degan ma'noni anglatadi. Nimaga menga do'q qiladi, nima *arpasini xom o'ribmanmi?* Bu gapdagi arpasini xom o'ribmanmi iborasi "nima yomonlik qildim" degan ma'noni anglatadi. Bu mahallada raisni *aytgani aytgan, degani degan*. Bu gapdagi aytgani aytgan, degani degan iborasi "gapi o'tadi" degan ma'noni anglatadi.

Har yoqqa alanglab, boshpana ko'zlashga tushdi. Dashtda bunday boshpana *anqoning urug'i*. Anqo qafsonaviy qush nomi bo'lib, bu gapda anqoning urug'i "topilishi qiyin, kamyob" degan ma'noni anglatadi. Samandarning o'gay onasining bag'ri tosh ekan. Bu gapdagi bag'ri tosh iborasi "bemehr" degan ma'noni anglatyapti.

Shunday iboralar borki, ular to'g'ri ma'noda ham ishlatiladi ibora bo'lib ham ishlatiladi. Masalan: Salimaning qizini ham bo'yi yetib qolibdi. Bu gapda ibora vazifasida kelgan va "oila qurish yoshiga yetdi" degan ma'noni anglatgan. Nodirbekning shkafga bo'yi yetdi. Hamma jim o'tirganda Farida gapirib filmning beliga tepid. Bu gapda "xalaqit berdi" degan ma'noni anglatgan. Umid raqibining borib beliga tepidi. Bu gapda urishayotgan paytida beliga tepid degan ma'noni anglatyapti.

Iboralar mavzusi juda aham rang-barang. Ularni tushinish uchun avval fikrlash, tahlil qilish kerak bo'ladi. Frazeologiya mavzusini o'qitishda "Munosabat" metodidan foydalanish o'quvchi (talaba)larga o'qitilayotgan mavzu bo'yicha o'zlaring erkin fikrlarini bildirish va turli xil misollar bilan dalillab berish qobiliyatini shakllantiradi. ⁴Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, o'quvchi (talaba)larga o'zlarida ijobiy fazilatlarini ko'proq shakllantirish, salbiy

² R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.

³ B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili "Excellent Poligraphy" Toshkent-2020

⁴ Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013.



xislatlardan esa voz kechishga yordam beradi. Bu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruhga savol beriladi. Ular savolga javob beradilar, o'z fikrlarini bildiradilar va uni isbotlab beradilar. Misol uchun so'z birikmasi yoki gap bo'lib keladigan iboralar aytiladi. O'quvchilar uning ibora bo'lib kelganiga ham so'z birikmasi yoki gap bo'lib kelganiga misol keltirishlari kerak bo'ladi. Faqatgina ibora vazifasida keluvchi iboralar ham bor bo'lib ularni ham qo'llanilishiga misol keltirishini so'rashimiz mumkin bo'ladi. Quyidagi iboralardan savollar tuzishimiz mumkin. Ammamning buzog'i, barmog'ini tishladi, bir cho'qishda qochirdi, bir yostiqqa bosh qo'ydi, bir paqir bo'ldi, bel bog'ladi, beliga tepdi, bosh og'rig'i, boshini og'ritdi, do'ppisi tor keldi, do'ppisini osmonga otdi, ikki qo'llab, ilon po'st tashlaydi, joyiga qo'ydi, o'rtaga oldi, peshona teri, tegib ketdi, tosh otdi, yo'l ko'rsatdi bu iboralar so'z birikmasi, gap holda va ibora vazifasida ham kelishi mumkin. Bunday iboralar orqali o'quvchi (talaba)larning fikrlash qobiliyati rivojlanishi bilna bir qatorda so'z boyligi ham ortadi. O'qituvchi ularga to'g'ri yo'l ko'rsatsa, o'quvchilar o'z nutqida ham bunday iboralrni o'rinli foydalanadilar. Iboralardan to'g'ri foydalanilmasa nutqda g'alizlik paydo bo'ladi va gap mazmunini o'zgartirib yuboradi. Metodni qo'llash natijasida o'quvchilar o'zlari bilmagan iboralarning ma'nosini bilib oladilar va to'g'ri qo'llashni o'rganadilar.

References:

1. B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili "Excellent Poligraphy" Toshkent-2020
2. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
3. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
4. Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013.